

O‘ZBEKISTONDA SUG‘URTA SOHASI UCHUN YUQORI MALAKALI KADRLARNI TAYYORLASH: MAVJUD HOLAT VA ISTIQBOLLAR

Xasanova O‘g‘iloy Xusenovna

Osiyo xalqaro universiteti

KIRISH

Sug‘urta bozorining rivojlanishi to‘g‘ridan-to‘g‘ri inson kapitaliga bog‘liq. O‘zbekistonda sug‘urta xizmatlarini qamrab olish darajasi hanuz etarli emas — yalpi ichki mahsulotning 1%dan kamini tashkil qiladi. Bu holatning asosiy sabablaridan biri – sohada yuqori malakali mutaxassislar etishmasligidir. Aksariyat xodimlarda sug‘urta sohasi bo‘yicha maxsus ta‘lim mavjud emas. So‘nggi yillarda bu sohani mustahkamlashga qaratilgan choralar ko‘rilmoqda: yangi ta‘lim dasturlari, malaka oshirish kurslari, korporativ maktablar tashkil etilmoqda. Biroq, mazkur islohotlarning samaradorligini baholash talab etiladi.

USUL

Tadqiqotda quyidagi manbalardan foydalanildi: - 2023 yilda O‘zbekiston oliy o‘quv yurtlariga «Sug‘urta ishi» yo‘nalishi bo‘yicha qabul ko‘rsatkichlari;

- Sug‘urta kompaniyalari xodimlari o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovlar;
- Korporativ o‘quv dasturlari va malaka oshirish faoliyati bo‘yicha ochiq ma‘lumotlar;
- Davlat va xalqaro tashkilotlarning hisobotlari (jumladan, PROON, UzbekistonInvest, moliyaviy institutlar).

Natijalar MS Excel orqali vizualizatsiya qilindi.

NATIJALAR

2023 yil holatiga ko‘ra, O‘zbekistondagi 5 ta oliy ta‘lim muassasasida “Sug‘urta ishi” yo‘nalishi bo‘yicha taxminan 250 nafar talabaning qabul qilingani kuzatildi. Ularning katta qismi — 125 nafar talaba — Toshkent moliya institutiga to‘g‘ri keladi. Bu holat ushbu yo‘nalish bo‘yicha ta‘lim hajmi hanuz etarli emasligini ko‘rsatadi. SHu bilan birga, amaldagi sug‘urta kompaniyalari xodimlarining atigi 10 foizidagina sohaviy (sug‘urtaga oid) akademik ma‘lumot mavjud bo‘lib, bu sohadagi kadrlar tanqisligini yanada kuchaytiradi.

Olib borilgan tahlillar va so‘rovlar natijalariga ko‘ra, mehnat bozorida sug‘urta xizmatlari sohasidagi eng yuqori talab sug‘urta agentlari va sotuvchilarga nisbatan shakllangan. Bu toifadagi mutaxassislarga bo‘lgan ehtiyoj 63 foizni tashkil etadi. SHuningdek, andarrayterlar (28%), yuridik, buxgalteriya va axborot texnologiyalari sohasi mutaxassislari (11%), hamda rahbar kadrlar (8%) ham sug‘urta bozorida talab yuqori bo‘lgan lavozimlar qatoriga kiradi.

Xodimlarning malakasini oshirish maqsadida qator korporativ va xalqaro o‘quv dasturlari amalga oshirilmoqda. Jumladan, “O‘zbekinvest” kompaniyasi tashabbusi bilan tashkil etilgan “SHkola straxovaniya” doirasida 94 ta vebinar o‘tkazilib, ularda 10 000 dan ortiq tinglovchi ishtirok etgan. SHuningdek, “Akademiya straxovaniya” tarkibida 10 ta

amaliyotga yo‘naltirilgan trening tashkil etilgan bo‘lib, ular 600 nafarga yaqin mutaxassisni qamrab olgan. Undan tashqari, sug‘urta kompaniyalari xodimlari uchun AQSH, CHexiya va Turkiya kabi mamlakatlarda xalqaro stajirovkalar amalga oshirilgan. 2023 yilda esa BMT Taraqqiyot dasturi (PROON) ko‘magida Toshkent moliya instituti qoshida maxsus o‘quv markazi faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Bu markaz sohadagi mutaxassislarni qayta tayyorlash va malaka oshirishning institutsional bazasini yaratishga qaratilgan.

MUHOKAMA

Sug‘urta sohasida kadrlar etishmasligi ham ta‘lim, ham amaliyot bilan bog‘liq muammolarni ko‘rsatadi. Ta‘lim dasturlari ko‘p hollarda nazariy, amaliy ko‘nikmalar etishmaydi. Mutaxassislarning ko‘pchiligi ish paytida qayta o‘qitilishiga to‘g‘ri kelmoqda. Muammoni bartaraf etish uchun amaliyotga asoslangan o‘quv dasturlari, dual ta‘lim, masofaviy kurslar va sohaviy mutaxassislarni o‘qitish jarayoniga jalb qilish talab etiladi. Sug‘urta sohasini talabalar uchun jozibador qilish, stipendiyalar, targ‘ibot ishlari ham muhim.

XULOSA

Sug‘urta sohasini rivojlantirishning asosi — yetuk kadrlardir. Ijobiy qadamlar bo‘lsa-da, kompleks yondashuv talab etiladi. Akademiya va amaliyot hamkorligi, raqamlashtirilgan malaka oshirish va yoshlarni jalb qilish kelajakda sug‘urta bozorini yanada kuchaytirishi mumkin.

ADABIET:

1. Azimov R.S. va boshqalar. “O‘zbekiston Respublikasida sug‘urta ta‘limi holati va muammolari” mavzusidagi ilmiy maqola. — itm.uz saytida e‘lon qilingan.
2. BMT Taraqqiyot dasturi (PROON). “Sug‘urta sektori mutaxassislari uchun o‘quv markazi ochilishi” mavzusidagi matbuot xabarnomasi. — www.undp.org sayti.
3. “O‘zbekinvest” AJ. 2023 yil yakuni bo‘yicha faoliyat bo‘yicha press-reliz. — www.uzbekinvest.uz rasmiy sayti.
4. 2023 yil uchun “Sug‘urta ishi” yo‘nalishi bo‘yicha talabalar qabul ko‘rsatkichlari. — Golden Pages manbasi orqali Toshkent moliya instituti va Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ma‘lumotlari.